

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019. Qx.75.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ALIMBAEV BAUIRJAN KURALBAEVICH

**PARRANDACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA
ISTIQBOLLI TOVUQ KROSSLARIDAN TADBIRKOR
XO‘JALIKLARIDA FOYDALANISHNING INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Alimbayev Bauirjan Kuralbayevich

Parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda istiqbolli tovuq krosslaridan
tadbirkor xo‘jaliklarida foydalanishning innovatsion texnologiyalari..... 3

Алимбаев Бауыржан Куралбаевич

Инновационные технологии использования перспективных куриных кроссов
в производстве продукции птицеводства в предпринимательских
хозяйствах 19

Alimbaev Bauirjan Kuralbaevich

Using innovative technologies of promising poultry products in the production of
cross-chicken crossings on entrepreneurs 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work..... 39

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019. Qx.75.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ALIMBAEV BAUIRJAN KURALBAEVICH

**PARRANDACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA
ISTIQBOLLI TOVUQ KROSSLARIDAN TADBIRKOR
XO‘JALIKLARIDA FOYDALANISHNING INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Qx939 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi www.uzkarakul.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ermator Yusupbek Amirovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Aripov Uktam Xadjimuratovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Xolmatov Anvarjon Xakimjonovich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140154, Samarqand, M.Ulug'bek ko'chasi, 47 uy. Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, majlislar zali 2-qavat, tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (236-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47 uy, institut ma'muriy binosi, 1-qavat Tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

E.S.Shaptakov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
q-x.f.d. (DSc), professor

Z.S.Klichev
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
q-x.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

D.Xolmirzaev
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q-x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo parrandachilik tarmog'ida bugungi kunda tuxum yo'nalishidagi tovuq krosslaridan keng foydalanilmoqda. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlariga 20 dan ortiq tuxumchilik krosslarini yetkazib beruvchi yirik parrandachilik kompaniyalari mavjud bo'lib, bu kompaniyalar qatoriga Niderlandiyaning "Dekalb" va "Euribrid", Kanadaning "ISA-Bebok" va "Shevera", Germaniyaning "Lohmann", AQSHning "Hy-Line", Vengriyaning "Tetra", Chexiyaning "Dominant", Fransiyaning "Iza", Rossiyaning "Progress" va boshqalar kiradi. FAO ma'lumotlari (2020-yil) bo'yicha dunyoda 1,7 trln dona tuxum ishlab chiqarilib, shundan 1,6 trln donasi tovuq tuxumiga to'g'ri kelmoqda¹. Shu sababli tovuqlarning tuxum mahsuldorligini oshirishda tovuq krosslaridan foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlar dolzarb masala hisoblanadi.

MDH mamlakatlari orasida Rossiya federatsiyasi parrandachilik tarmog'i bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. 2021-yilda Rossiya federatsiyasida 44,9 mlrd dona tuxum va 5,018 mln tonna parranda go'shti ishlab chiqarilgan. Tovuuq krosslari naslchilik zavodlari va reproduktiv xo'jaliklarda ko'paytirilib, turli interliniya duragaylari tovar xo'jaliklariga yetkazilmoqda. Belarussiya respublikasida 50 da parrandachilik korxonolari mavjud bo'lib, ulardan 26 tasi tuxum, 24 tasi parranda go'shti yetishtirishga ixtisoslashgan. MDH davlatlarida tuxum va parranda go'shti sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun mavjud zotlar asosida seleksiya-genetika markazlari tomonidan tavsiya etilgan sxema bo'yicha yangi tizimlar, krosslar yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda 2022-yilning boshida parrandalar bosh soni 93 mln boshni tashkil qilib yil davomida 1 kishiga parranda go'shti iste'mol qilinishi 200 g dan 2 kg gacha yetdi. Oxirgi o'n yilda parrandalar galasidagi tovuqlar ulushi 21% dan ikki barobar ortib 40% ni tashkil etdi. Buning natijasida tuxum olish 2,7 mlrd donadan 7,7 mlrd donagacha yoki 2,8 martaga ortdi. Tovuuqlarning tuxum mahsuldorligini oshirishda krosslaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...32-maqсад: Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish. Chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish...» vazifalari belgilab berilgan². Endilikda Respublikamizning barcha hududlarida parranda yetishtirish, uni qayta ishlash, yakuniy mahsulot tayyorlash va uni istemolchiga yetkazishni qamrab olgan parrandachilik klasterlari tashkil etilmoqda. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tovuqlar mahsuldorligini oshirishda tovuq krosslaridan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish orqali tuxum va go'sht yetishtirishni ko'paytirish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, dolzarb masala hisoblanadi.

¹ <https://bigenc.ru/c/ptitsevodstvo-7f8979>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PQ-60 son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Toshkent 2022-y.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015 son “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146 son “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda va mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustivor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Taniqli xorijiy olimlardan Angliya sharoitida K.Xartmann, K.Yoxansson, E.Strandberg (2000) tuxum mahsuldorligi bo‘yicha seleksiyalash usullari, Niderlandiya sharoitida M.Nauta, E.Evers, K.Takumi (2001) parrandalarni oziqlantirishda toksinlarning baholanishi, Yaponiya sharoitida Anon (1987) parranda mahsulotlarini jadallashtirish usullari, Rossiya federatsiyasi sharoitida rus olimlaridan A.V.Popova (2009) turli krosslarda olingan tovuqlarning o‘sish va rivojlanishi, go‘sht mahsuldorligini, A.A.Astraxanovich, K.A.Mixeyev (2016) tuxum yo‘nalishidagi krosslarning o‘sib-rivojlanishi, T.N.Xamidullin (2005) parrandalar mahsuldorligini va mahsulot sifatini oshirishning nazariy asoslari, Ingushetiya sharoitida M.M.Dolov (2011), parrandalarning mahsuldorligini oshirishda xorijiy seleksiya usullarini qo‘llash natijalari, O‘zbekiston respublikasida S.Azimov (2013) tuxum va go‘sht yo‘nalishidagi parrandalarni oziqlantirishda innovatsion texnologiyalar, G.B.Amanturdiyev (2016) Stabillashtirilgan yodli kaliy tuzining broyler jo‘jalar mahsuldorligi ta’siri o‘rganishda, F.Djasimov, N.Shaymuradov, R.Troyanovskaya, A.Mamadiev (2015) “Hy-Line” krossi tovuqlarining tuxum mahsuldorligi va uning sifati xususiyatlari, D.B. Shonazarov, Yu.A.Ermatov (2014) Inkubatsiyabop tuxum olishda tovuqlarning boshlang‘ich liniyalaridan samarali foydalanish usullari ustida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №11 raqamli «Parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda istiqbolli tovuq krosslaridan tadbirkor xo‘jaliklarida foydalanishning innovatsion texnologiyalari» mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan (2021-2023 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Parrandachilik fermer xo‘jaligi sharoitida “Lohmann brown-classic”, “Lohmann sandy” krosslariga mansub parrandalar mahsuldorligidan foydalanishning istiqbolli yo‘llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

istiqbolli “Lohmann brown-classic”, “Lohmann sandy” krosslaridan olingan jo‘jalarni yoshi dinamikasida saqlash, parvarishlash, oziqlantirish, va saqlanuvchanligini aniqlash;

parrandalarni saqlashda fiziologik holati, zoogigiyenik me'yorlar va uning mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

tadbirkor xo'jaliklari sharoitida parrandalarning tuxum va go'sht mahsuldorligini aniqlash;

parrandalarning genetik imkoniyatidan foydalanib, mahsuldorligini oshirishning tejamkor usulini joriy qilish.

Tadqiqot obyekti. Qoraqalpog'iston respublikasi Ellikqal'a tumani "Nurummat Qurbanov" fermer xo'jaligida saqlanayotgan istiqbolli "Lohmann brown-classic", "Lohmann sandy" tovuq krosslari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Turli krossga mansub parrandalarning o'sishi, rivojlanishi, tuxumdorlik, tuxumning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari, go'sht mahsuldorligi, kimyoviy tarkibi, turli davrda saqlanuvchanlik xususiyatlari, ozuqa konvertatsiyasi, oziqlantirish darajasining ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Parrandalarning o'sishi va rivojlanishi oy oxirida bir marta parrandalarni individual tortish usuli bilan aniqlandi va tirik vazni dinamikasi bo'yicha baholandi. Go'sht mahsuldorligini o'rganish uchun BPITI usuli (2001) bo'yicha amalga oshirildi. Parranda go'shtidan namuna olish va ekspertizadan o'tkazish GOST 7702.00-74, 7702.1-74, 22237-75 bo'yicha amalga oshirildi. Go'shtning kimyoviy tarkibini aniqlashda mavjud andozalar (GOST-9793-74; GOST-23042-86; GOST 25011-81) foydalanildi. Olingan raqamli ma'lumotlardan G.F.Lakin (1980) "Biometriya" usulida qayta ishlov berildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog'iston respublikasining janubiy hududidagi fermer xo'jaliklarida istiqbolli tovuq krosslarining tuxum mahsuldorligining shakllanishiga saqlash, oziqlantirish, darajasining ijobiy ta'siri aniqlangan;

"Lohmann brown-classic" krosslarida ozuqani yaxshi o'zlashtirish xususiyati yuqori bo'lganligi sababli "Lohmann sandy" krosslariga nisbatan 4 haftalik yoshida 18 grammga, 20 haftalikda 51,35 grammga va 80 haftalikda 208,15 grammga yuqori bo'lganligi aniqlangan;

tadbirkor xo'jaliklarida "Lohmann brown-classic" va "Lohmann sandy" krosslarni ishlab chiqilgan to'la qiymatli ratsion bilan oziqlantirish hisobiga bir yillik tuxum mahsuldorligi 314,2 va 319,4 donaga yetkazish mumkinligi aniqlangan;

Qoraqalpog'iston sharoitida "Lohmann brown-classic" va "Lohmann sandy" krosslarni ishlab chiqilgan to'la qiymatli ratsion bilan oziqlantirish hisobiga so'yim vazni 1433,2 va 1170,8 g ga, so'yim chiqimini 75,4 va 72,9 foizga yetkazish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston respublikasi Ellikqal'a tumani "Nurummat Qurbanov" fermer xo'jaligida istiqbolli "Lohmann brown-classic", "Lohmann sandy" krosslaridan olingan yosh jo'jalarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari aniqlangan;

turli krosslarga mansub parrandalarning yosh dinamikasida tuxum mahsuldorligi va sifat ko'rsatkichlari aniqlanilgan;

"Lohmann brown-classic", "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlari galadan puchaq qilinganda olinadigan qo'shimcha go'sht mahsuldor ko'rsatkichi va kimyoviy tarkibi aniqlangan;

tadqiqot natijalari asosida olingan ma'lumotlar bo'yicha krosslar o'zaro taqqoslanganda go'sht mahsuldorligi bo'yicha "Lohmann brown-classic" krosslari 262,4 g ($P < 0,01$) ga, tuxum mahsuldorligi bo'yicha esa "Lohmann sandy" krosslari 3,8 dona ($P > 0,05$) ga ustunlik qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, uning natijalari va bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan birlamchi ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi, olib borilgan tajriba va laboratoriya ishlariga Qishloq xo'jaligi vazirligi va Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baho berilganligi, olingan ilmiy-tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinganligi dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalari nufuzli ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar tovuq krosslarining saqlash sharoitlarini, oziqlantirish usullarini hisobga olgan holda, ular organizmining postembrional davrlardagi rivojlanish qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarni boyitadi, mahsuldorlikning shakllanishi va ishlab chiqarishning maksimal samarali texnologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Yosh jo'jalarning o'sish va rivojlanish imkoniyotidan foydalanish, tovuq tuxumi va go'shti yetishtirish hajmini oshirish, mahsulot birligiga ketadigan ozuqani kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, turli istiqbolli tovuq krosslarining parrandachilik korxonasi sharoitida tuxum va go'sht mahsuldorligini jadallashtirishning samarali usullarini amaliyotda qo'llash, tovuq go'shti va tuxum yetishtirish hajmini oshirish, tovuq krosslarini parrandachilik korxonasida saqlash muddatlarini aniqlash sohaning iqtisodiy samaradorligini barqarorlashtirishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda istiqbolli tovuq krosslaridan tadbirkor xo'jaliklarida foydalanishning innovatsion texnologiyalari yo'nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Fermer xo'jaliklarida tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari Qoraqalpog'iston respublikasi Ellikqal'a tumani "Nurummat Qurbanov" fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 10-iyul 33/01-09-383-son ma'lumotnomasi). Natijada 72 haftalik davrida tuxum massasi 0,31-0,35 g ga, tovuqlarning saqlanuvchanligi 1,2 foizga oshgan. "Lohmann brown-classic" krossga mansub tovuqlarda tuxum yetishtirishning rentabellik darajasi 18,3 va "Lohmann sandy" tovuqlarida 13,6 foizni tashkil etgan.

Fermer xo'jaliklarida tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari Qoraqalpog'iston respublikasi Ellikqal'a tumani "Bo'ston chicken" xususiy korxonasida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 10-iyul 33/01-09-383-son ma'lumotnomasi). Natijada 12 oydagi tuxum mahsuldorligi "Lohmann brown-classic" krosslarida 311,6 dona, "Lohmann sandy" krossida 318,2 donani tashkil

etgan. Tovuq krosslaridan tuxum ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi 11,1 va 13,2 foizni tashkil qilgan.

Fermer xo‘jaliklarida parranda go‘shiti yetishtirishning innovatsion texnologiyalari Qoraqalpog‘iston respublikasi Taxiatoosh tumaniga qarashli “Yangi zamon xo‘jayli” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 10-iyul 33/01-09-383-son ma‘lumotnomasi). Natijada 80-haftalik davrida “Lohmann brown-classic” krossiga mansub tovuqlarda tirik vazni 1870,6 g ni, “Lohmann sandy” tovuqlarida 1598,3 g ga teng bo‘lgan. “Lohmann brown-classic” va “Lohmann sandy” krosslaridan go‘shit yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi 26,1 va 21,6 foizni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston respublikasi Ellikqal’a tumani “Nurummat Qurbanov” fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish yig‘ilishlarida (2021-2023-yy.), Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti aprobatsiya komissiyasida (2021-2023 yy.), “Zooinjeneriya va veterinariya” kafedrasining hisobot yig‘ilishlarida (2021-2023 yy.) hamda 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida 4 ta, O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda, ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti yoritilgan, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga, ilmiy muassasaning tematik rejasiga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida parrandachilik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan mahalliy va xorij olimlarining parrandalarni oziqlantirish usullari, ozuqa tarkibi va sifat ko‘rsatkichlari, mahsulot yetishtirishda oziqlantirishning ta’siri va seleksion omillarning parrandalar mahsuldorligiga ta’siri haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan, ma‘lumotlar umumlashtirilib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot manbai va usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, “Nurummat Qurbanov” fermer xo‘jaligida jo‘jalarni o‘stirish sexining faoliyati, tadqiqot sxemasi va usullari hamda Lohmann brown classic va Lohman sandy krosslariga ta’rif yoritilgan.

Tadqiqotlar ishlarining tajriba qismi Qoraqalpog‘iston respublikasi Ellikqal’a tumani “Nurummat Qurbanov” fermer xo‘jaligida 2021-2023 yillar davomida bajarilgan. Tadqiqotlar davomida tajribadagi Lohmann brown classic va Lohman sandy krosslariga mansub tovuq krosslarining tirik vazni dinamikasi, ayrim klinik va gematologik ko‘rsatkichlari, tovuq krosslarining tuxum mahsuldorligi, tuxumning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari, tuxum qobig‘i sifatining ko‘rsatkichlari, tovuq krosslarining go‘sh t mahsuldorligi, go‘sh tining kimyoviy tarkibi, tovuqlarni saqlash usullari, turli davrda saqlanuvchanlik xususiyatlari, ozuqa ratsionlari, ozuqa konversiyasi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashda foydalanilgan usul va uslublar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Tajribadagi tovuq krosslarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan uchinchi bobida tovuq krosslarining tirik vazni dinamikasi, ayrim klinik va gematologik ko‘rsatkichlari yoritilgan.

Tajribadagi “Lohmann brown-classic” va “Lohmann sandy” krosslariga mansub jo‘jalarning yoshi dinamikasida tirik vaznini o‘rganish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarida (1-jadval) 4 haftalik yoshida tirik vazni 266,7 g bo‘lsa, “Lohmann sandy” krossining 248,7 g ni tashkil qilib, “Lohmann brown-classic” krossi “Lohmann sandy” krossi tirik vazniga nisbatan 18 g ga ustunlik qildi. 20 haftaligida esa, 51,3 g ga ustunlik qildi.

1-jadval

Tajribadagi Lohmann brown-classic va Lohmann sandy krosslariga mansub, jo‘jalarning tirik vaznining yoshi dinamikasida o‘zgarishi, g (n=20)


Yoshi, kun va hafta	Krosslar			
	Lohmann brown-classic		Lohmann sandy	
	X±S _x	C _v %	X±S _x	C _v %
1-kunlik	39,15±0,24*	2,78	35,85±0,24	3,03
1-haftalik	70,75±0,46	2,92	67,45±0,41	2,70
4-haftalik	266,75±0,70	0,70	248,7±1,053	1,89
8-haftalik	674,1±1,14	0,77	615,25±0,86	0,63
12-haftalik	1017,8±1,27	0,55	956,2±1,18	0,55
16-haftalik	1219,1±1,17	0,42	1156,8±1,32	0,51
20-haftalik	1429,25±0,80**	0,25	1377,95±0,82	0,26
30-haftalik	1695,65±11,12	2,93	1616,7±9,39	2,59
40-haftalik	1746,2±15,67	4,01	1645,2±10,78	2,93
50-haftalik	1781,9±16,01	4,02	1663,15±9,53	2,56
80-haftalik	1893,9±16,47***	3,88	1685,75±8,32	2,20

Izoh: *P<0,05; **P<0,01; ***P<0,001

Jo‘jalarning yoshi dinamikasida tirik vaznining jadal kechishida ayniqsa, birinchi to‘rt haftaligida har qanday tashqi ta’surotlardan saqlash, bir xilda ozuqani tarqatish, ozuqa yetkazib berish zanjirini uzun bo‘lishini ta’minlash zarur. 80-haftalik yoshidagi “Lohmann brown-classic” tovuqlari 1893,9±16,47 (P<0,001) tirik vaznga ega bo‘lib, 1 kunlik davriga nisbatan 1854,7 g mutlaq o‘shishga ega bo‘lgan bo‘lsa, “Lohmann sandy” krosslari tovuqlarida bu ko‘rsatkich, 1649,9 g ni tashkil qildi.

Parrandalarda mutloq va kunlik o‘shish ko‘rsatkichlari ularning rivojlanishi, tez yetilishining qay darajada kechayotganligidan darak beradi. Bizning tajriba ishlarimizdagi mutloq o‘shish ko‘rsatkichlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

Ma’lumotlarda 1-haftalik jo‘jalar bir xil tirik vaznga ega bo‘lgan bo‘lsa, 4 haftalik davriga kelib “Lohmann brown-classic” krossli jo‘jalarda mutloq o‘shish ko‘rsatkichi, 196,0 g tashkil qildi, va bu ko‘rsatkich “Lohmann sandy” krossiga mansub jo‘jalarda 181,25 g tashkil qilib, birinchi krossdagi jo‘jalar 14,8 g ga ustunlik qildi (1-rasm). Jo‘jalarning yoshi dinamikasida bunday tendentsiya saqlanib qolgan holda, 4 haftalikdan 8-haftalik orasidagi mutloq o‘shish ko‘rsatkichlari birinchi guruhdagilarda, 407,35 g bo‘lib, ikkinchi guruhdagilarga nisbatan 7,5% ga ustunlik qildi. 50-haftalik davriga kelib, shunga mutanosib ravishda, 50,55 g ni tashkil qilib, 43,6% ga yuqori bo‘ldi.



1-rasm. “Lohmann brown-classic” va “Lohmann sandy” krosslariga mansub jo‘jalarning mutloq o‘shishi, g

Parrandalarning fiziologiyasini o‘rganishning asosiy maqsadi parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun maqbul sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni ilmiy asoslash uchun zarur bo‘lgan parrandalar organizmidagi fiziologik jarayonlar va funktsiyalar to‘g‘risida bilimlarni shakllantirishdir. Fiziologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Tovuq krosslarining fiziologik ko‘rsatkichlari, (n=20) $\bar{X} \pm S_x$

Fiziologik ko‘rsatkichlari	Krosslar			
	Lohmann brown classic		Lohmann sandy	
	Ertalab	kechqurun	Ertalab	Kechqurun
Tana harorati, °C	41,3±0,07	41,8±0,06	41,5±0,06	42,1±0,07
Yurak urishi, min	227,3±4,31	246,4±4,72	234,5±4,46	256,2±5,24
Nafas olishi, min	19,3±0,25	21,9±0,41	19,6±0,37	25,8±0,47

2-jadval ma’lumotlarida, “Lohmann brown-classic” krosslariga mansub tovuqlarda kechqurungi tana harorati bo‘yicha, 0,5 °C gradusga yuqori bo‘lgan

bo'lsa, ushbu ko'rsatkich "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlarda esa, 0,6 °C gradusga farqlandi. Krosslar orasidagi katta farqlanishlar (0,2-0,3 °C gradus) bo'lmadi.

Yurak urush ko'rsatkichi bo'yicha "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda ertalabki aniqlashda 227,3±4,31 marta bo'lgan bo'lsa, kechqurunlari bu ko'rsatkich 246±4,72 martani tashkil qilib, kechqurunlari 1 minutda yurak urishi ertalabkiga nisbatan 19,1 martaga ko'proq bo'ldi. Krosslar orasidagi "Lohmann sandy" tovuqlarida "Lohmann brown classic" krosslariga nisbatan 7,2 marta va kechqurungi esa, 9,8 marta ko'p bo'ldi.

Nafas olishi chastotasi bo'yicha olingan ma'lumotlarda "Lohmann brown-classic" krossga mansub tovuqlarda ertalabki 19,3±0,25 marta bo'lgan bo'lsa, kechqurungida 21,9±0,41 martaga teng bo'ldi. Shunga mos ravishda "Lohmann sandy" tovuqlarida 19,6±0,37 va 25,8±0,47 martani tashkil qildi.

3-jadval

Qonning morfologik tarkibi, (n=5) X±Sx

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Lohmann brown-classic	Lohmann sandy
Gemoglobin	g/l	80,9±0,85*	78,6±0,51
Eritrotsit	10 ¹² /l	3,4±0,09	3,3±0,04
Leykotsit	10 ⁹ /l	27,8±0,31	27,5±0,35

Izoh: *P<0,05

Qonning morfologik tarkibi bo'yicha olingan ma'lumotlarda gemoglobin miqdori "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda 80,9±0,85 g/l ga teng bo'lgan bo'lsa, "Lohmann sandy" krosslarida esa, 78,6±0,51 g/l ni tashkil qilib, 2,3 gemoglobinga birinchi guruhdagilar ustunligini ko'rish mumkin. Bunday farqlanishlarni eritrotsitlar va leykotsitlarda ham kuzatish mumkin (3-jadval).

Dissertatsiyaning "**Tajribadagi tovuq krosslarining tuxumdorlik xususiyatlari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida tovuq krosslarining tuxum mahsuldorligi, tuxumning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari, tuxum qobig'i sifatining ko'rsatkichlari, tajribadagi tovuq krosslarining go'sht mahsuldorligi, tovuq go'shtining kimyoviy tarkibi bayon qilingan.

Parrandalarning tuxum mahsuldorlik ko'rsatkichlari 4-jadvalda umumlashtirilgan. Tuxum berishning eng yuqori cho'qqisi orasidagi farqlanishlar "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlar "Lohmann brown-classic" krosslariga nisbatan 0,8% ga ustunlik qildi. 12 oydagi tuxum mahsuldorligi "Lohmann brown-classic" krosslarida 314,2±5,52 dona tuxum tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlarda 319,4±4,78 donani tashkil qildi.

Yoshi dinamikasida tuxum vazni bo'yicha olingan ma'lumotlar (5-jadval), 22 haftalik davrda "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda 54,7±0,26 g ni tashkil qilgan bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlarida ushbu ko'rsatkich 54,3±0,06 g ga teng bo'ldi. 30-haftalik davrida bu ko'rsatkich shunga mos ravishda 60,9±0,29 va 61,1±0,08 g ni tashkil qildi. 52 haftalik davrida esa, "Lohmann brown-classic" tovuqlarida 66,3±0,15 va "Lohmann sandy" tovuqlarida

bo'lsa, $67,3 \pm 0,3$ g ni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkich, 72 haftalik davrida shunga mos ravishda $68,1 \pm 0,11$ va $69,7 \pm 0,2$ g ga teng bo'ldi.

4-jadval

Tuxum mahsuldorligi, (n=20) $X \pm S_x$

Ko'rsatkichlar		O'lchov birligi	Krosslar	
			Lohmann brown-classic	Lohmann sandy
Tuxumdorligi	50% mahsuldorlikdagi yoshi	kun	141	144
	Tuxum berishning eng yuqori cho'qqisi	%	92,4	93,2
Tuxum qo'yish boshidagi soni	12 oyda	dona	$314,2 \pm 5,52$	$319,4 \pm 4,78$
	14 oyda	dona	$349,3 \pm 5,65$	$353,1 \pm 6,28$
Bir bosh tovuq tuxumining og'irligi	12 oyda	kg	$18,7 \pm 0,31$	$18,8 \pm 0,24$
	14 oyda	kg	$19,4 \pm 0,4$	$20,7 \pm 0,31$
O'rtacha tuxum vazni	12 oydagi tuxum vazni	g	$59,7 \pm 0,24$	$58,9 \pm 1,25$
	14 oydagi tuxum vazni	g	$61,8 \pm 1,07$	$61,4 \pm 1,05$

5-jadval

Yoshi dinamikasi bo'yicha tuxum vazni o'zgarishi, n=20

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Krosslar	
		Lohmann brown-classic	Lohmann sandy
		$X \pm S_x$	
22 haftalik davrda	g	$54,7 \pm 0,26$	$54,3 \pm 0,06$
30 haftalik davrda	g	$60,9 \pm 0,29$	$61,1 \pm 0,08$
52 haftalik davrda	g	$66,3 \pm 0,15$	$67,3 \pm 0,06$
72 haftalik davrda	g	$68,1 \pm 0,11$	$69,7 \pm 0,2$
O'rtacha tuxum massasi	g	$62,5 \pm 0,11^*$	$62,1 \pm 0,13$
O'rtacha tuxum mahsuldorligi	dona	$314,3 \pm 5,54$	$329,1 \pm 6,15$
O'rtacha 1 bosh tovuq uchun tuxum massasi	kg	$19,6 \pm 0,03$	$20,4 \pm 0,03$

Izoh: * $P < 0,05$

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, ikkala kross tovuqlarida ham yoshi dinamikasida tuxum vazni ortib borishi kuzatilib, 22 haftalik davrida "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda $54,7 \pm 0,26$ g ni tashkil qilgan bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlarida ushbu ko'rsatkich $54,3 \pm 0,06$ g ga teng bo'ldi. 72 haftalik davriga kelib, "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda tuxum og'irligi 25,4% ga va "Lohmann sandy" tovuqlarida esa, 28,7% teng bo'lib, ikkikchi guruh tovuqlari 3,3% ga ustunlik qildi.

Tuxum qobig'i sifatining ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan.

Qobiqning umumiy tuxum vazniga nisbatan ulushi "Lohmann brown-classic" krosslarida $10,9 \pm 0,17\%$ ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich,

“Lohmann sandy” tovuq krosslari tuxumlarida $10,4\pm 0,13\%$ bo‘lib, farqlanishlar deyarli (0,2 %) kuzatilmadi.


6-jadval

Tuxum qobig‘i sifatining ko‘rsatkichlari, $X\pm S_x$

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Krosslar	
		Lohmann brown-classic (n=20)	Lohmann sandy (n=20)
Qobiqning umumiy tuxum vazniga nisbatan ulushi	%	$10,9\pm 0,17$	$10,4\pm 0,13$
Qalinligi	mkm	$377,4\pm 1,34$	$377,6\pm 1,56$
Kul	%	$92,7\pm 0,10^{***}$	$93,6\pm 0,10$
Kalsiy	%	$32,9\pm 0,07$	$33,7\pm 0,11$

Izoh: $***P<0,001$

Bunday holat tuxum qobig‘i qalinligida ham (0,2 %) kuzatilmadi. Tuxum qobig‘i sifatining ko‘rsatkichlari bo‘lgan kul va kalsiy miqdori “Lohmann brown-classic” krosslarida $92,7\pm 0,10$ ($P<0,001$) va $32,9\pm 0,07\%$ bo‘lgan bo‘lsa, “Lohmann sandy” tovuq tuxumlari qobig‘ida $93,6\pm 0,10$ va $33,7\pm 0,11\%$ ni tashkil qildi. Krosslar orasidagi farqlanishlar shunga mutanosib ravishda 0,9 va 0,8% “Lohmann brown-classic” krosslaridan olingan tuxumlarda ustunlik qildi.



2-rasm. Qobiqning umumiy tuxum massasiga nisbat ulushi, g
(72 haftalik davridagi tuxum mahsulotlari)

72 haftalik davridagi tuxum mahsulotlari tarkibi ulushi bo‘yicha, “Lohmann brown-classic” krosslarida umumiy massasi 68,1 g ni tashkil qilgan bo‘lsa, oqsil va sariq qismi 59,9 g ni va qobiq qismi esa, 8,2 g ni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichlar “Lohmann sandy” krosslariga mansub tovuqlar tuxumida shunga mos ravishda 66,2; 58,1 va 8,1 g ga teng bo‘ldi. Krosslar orasida farqlanishlar kuzatilib, umumiy tuxum og‘irligining qobiq bo‘limi “Lohmann brown-classic” krosslarida 12,4 va 12,2% ni tashkil qilib, farqlanishlar 0,2% ga teng bo‘ldi (2-rasm).

Go‘sht mahsuldorligi bo‘yicha tajriba ma‘lumotlarida, so‘yim vazni va chiqimi 7-jadvalda umumlashtirilgan.

So'yishdan oldingi tirik vazni har ikkala kross tovuqlarida bir xil emasligi, ya'ni 80-haftalik davrida "Lohmann brown-classic" krossiga mansub tovuqlarda $1900,6 \pm 26,95$ ($P < 0,01$) g ni tashkil qilib, "Lohmann sandy" tovuqlarida esa, $1604,6 \pm 43,72$ g ga teng bo'lgan. Iste'molga yaroqli bo'limi (so'yim chiqimi) "lohmann brown-classic" tovuqlarida 75,4% ni va "lohmann sandy" tovuqlarida esa, 72,9% tashkil qildi. "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda iste'molga yaroqli bo'limi 100% deb qabul qilinsa, bir juft soni 26,8%, ko'krak va bel bo'limi 56,0% ($P < 0,05$), bo'yini 7,3 % va bir juft qanot bo'limlari esa, 9,9% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich shunga mutanosib ravishda "Lohmann sandy" tovuqlarida esa 23,1%; 58,9%; 7,1% va 10,9% ni tashkil qildi.

7-jadval

Tovuq go'shtining iste'molga yaroqli bo'limi (80-haftalik) $X \pm S_x$

Ko'rsatkichlar	Krosslar			
	Lohmann brown-classic, (n=5)		Lohmann sandy, (n=5)	
	g	%	g	%
So'yishdan oldingi tirik vazni	$1900,6 \pm 26,95^{**}$	100	$1604,6 \pm 43,72$	100
Iste'molga yaroqli bo'limi (So'yim chiqimi)	$1433,2 \pm 33,27$	75,4	$1170,8 \pm 40,49$	72,9
So'yilgan, tovuqning bir juft soni	$384,0 \pm 3,59$	26,8	$270,7 \pm 2,73$	23,1
So'yilgan tovuqning ko'krak va bel bo'limi	$802,7 \pm 25,34^*$	56,0	$690,4 \pm 37,71$	58,9
So'yilgan tovuqning bo'yni	$103,8 \pm 1,33$	7,3	$82,6 \pm 4,19$	7,1
So'yilgan, tovuqning bir juft qanoti	$142,7 \pm 0,71$	9,9	$127,1 \pm 3,10$	10,9

Izoh: * $P < 0,05$; ** $P < 0,01$

Tovuq go'shtining kimyoviy tarkibi 8-jadvalda keltirilgan bo'lib, ushbu jadval ma'lumotlarida, "Lohmann brown-classic" krosslarga mansub tovuq go'shtida suv miqdori $73,40 \pm 0,67\%$ ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich "Lohmann sandy" tovuqlari go'shtida $73,07 \pm 0,27\%$ bo'lib, 0,33% suv miqdori birinchi guruhdagilarda ko'p bo'ldi. Oqsil miqdori "Lohmann brown-classic" krosslarga mansub tovuq go'shtida $19,95 \pm 0,67\%$ ni tashkil qilib, ikkinchi guruh tovuq go'shtiga nisbatan, 0,55% ga ustunligi ko'rish mumkin.

8-jadval

Go'shtining kimyoviy tarkibi, $X \pm S_x$

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Lohmann brown-classic, (n=5)	Lohmann sandy, (n=5)
Suv	%	$73,40 \pm 0,67$	$73,07 \pm 0,27$
Oqsil	%	$19,95 \pm 0,67$	$19,40 \pm 0,32$
Yog'	%	$4,36 \pm 0,13$	$4,49 \pm 0,15$
Kul	%	$1,28 \pm 0,05$	$1,24 \pm 0,16$

Yog' miqdori bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlari go'shtida $4,49 \pm 0,15\%$ bo'lib, "Lohmann brown-classic" krosslarga mansub tovuq go'shtiga nisbatan

0,05% ga ko‘p bo‘ldi. Tovuq go‘shiti sifat ko‘rsatkichlari nafaqat oqsil miqdori bilan, balki uning tarkibidagi vitaminlar bilan ham bog‘liqli.

Dissertatsiyaning “**Saqlash va oziqlantirish usullari**” deb nomlangan beshinchi bobida tovuq krosslarini saqlash usullari, turli davrda saqlanuvchanlik xususiyatlari, ozuqa ratsionlari, ozuqa konversiyasi, tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi bayon qilingan.

Turli davrda tovuqlarning saqlanuvchanlik xususiyatlari 9-jadvalda o‘z aksini topgan.

9-jadval

Turli davrlarda saqlanuvchanligi, %

Davrlar	O‘lchov birligi	Lohmann brown-classic, (n=85)	Lohmann sandy, (n=79)
Parvarishlash davrida	%	97,4	96,6
Tuxum qo‘yish davrida	%	92,5	94,1

“Lohmann brown-classic” va “Lohmann sandy” krosslariga mansub parrandalarning turli davrlarda saqlanuvchanlik ko‘rsatkichlari turlicha bo‘lib, parvarishlash davrida saqlanuvchanlik darajasi “Lohmann brown-classic” tovuqlarida 97,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, tuxum qo‘yish davrida esa, 92,5% ga teng bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich “Lohmann sandy” tovuqlarida shunga mos ravishda 92,5 va 94,1% ni tashkil qilib, parvarishlash davrida 0,8% ga “Lohmann brown-classic” jo‘jalari ustunlik qildi.

Bizning tajriba ishlarimizda 20 haftalik davrigacha va mahsuldorlik davrida ozuqa sarflanish ko‘rsatkichlari o‘rganilib, ushbu olingan natijalar 10-jadvalda umumlashtirilgan.

10-jadval

Ozuqa sarflanishi, $X \pm S_x$

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Lohmann brown-classic, (n=50)	Lohmann sandy, (n=50)
20 haftalik davrigacha	kg	7,7±0,06	7,5±0,03
Mahsuldorlik davrida	g/kun	117,4±1,4	113,3±1,28
Ozuqa konversiyasi	kg/kg tuxum vazniga	2,1±0,003	2,0±0,003

Ozuqa sarflanishi bo‘yicha 20 haftalik davrigacha Lohmann brown-classic (n=50) tovuqlarida 7,7±0,06 kg ni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich Lohmann sandy krosslarida 7,5±0,03 teng bo‘ldi. Ya‘niy Lohmann brown-classic tovuqlarida 0,2 kg ga biroz ko‘proq bo‘ldi. Birinchi guruh tovuqlarida mahsuldorlik davrida 117,4±1,4 g dan ozuqa sarflangan bo‘lsa, ikkinchi guruhdagilarda 113,3±1,28 g ga teng bo‘ldi. Ozuqa konversiyasi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar shundan darak beradiki, har ikkala krossga mansub tovuqlarda deyarli bir biriga yaqin ko‘rsatkichlar olinib, farqlanishlar “Lohmann sandy” tovuqlarida 0,1 kg/kg tuxum vazniga kamroq sarflanganligi aniqlanildi.

Parrandachilikda asosan, tuxum va go‘sh t mahsuldorligi parrandachilik korxonasi qing iqtisodiyotini belgilaydi va bu ularni saqlash oziqlantirish xarajatlari

asosanib belgilaydi. Bizning tajriba ishlarimizda parrandalardan olingan mahsulotning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarida tuxum yetishtirish bo'yicha rentabellik darajasi 10,6% bo'lgan bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlarida bo'lsa, 14,4% ni tashkil qildi. Ya'niy tuxum yetishtirish bo'yicha, ikkinchi guruh tovuqlari 3,8% ga ustunlik qildi. Go'sht yetishtirish bo'yicha olingan ma'lumotlarda esa "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlarida birinchi guruhdagilarga nisbatan 5,2% ga kam bo'ldi. Xulosa qilib aytish mumkinki, tuxum yetishtirishda "Lohmann sandy" ancha ustunligini ko'rsatdi aksincha go'sht yetishtirishda (80-haftalik tovuqlarda) "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarida esa go'sht mahsuldorligi yuqori ekanligi isbotlandi.

XULOSALAR

1. Istiqbolli krosslarga mansub "Lohmann brown-classic" va "Lohmann sandy" tovuqlari yoshi dinamikasida jadal o'sish salohiyatiga ega bo'lib, tirik vazni bo'yicha barcha o'sish davrlarida 80-haftalik yoshidagi "Lohmann brown-classic" tovuqlari $1893,9 \pm 16,47$ ($P < 0,001$) tirik vaznga ega bo'lib, 1 kunlik davriga nisbatan 1854,7 g mutlaq o'sishga ega bo'lgan bo'lsa, "Lohmann sandy" krosslari tovuqlarida bu ko'rsatkich, 1649,9g ni tashkil qildi. Ikkala kross tovuqlari orasidagi farqlanishda 11,1% ga "Lohmann brown-classic" tovuqlari ustunlik qildi.

2. Ikkala krosslarda ham 1 haftalik jo'jalarda bir xil mutlaq o'sishga ega bo'lib, 4-haftalik davrida "Lohmann brown-classic" krossli jo'jalarda mutloq o'sim ko'rsatkichi, 196,0 g ni tashkil qildi va bu ko'rsatkich "Lohmann sandy" krossiga mansub jo'jalarda 181,25 g ni tashkil qilib, birinchi krossdagi jo'jalar 14,8 g ga ustunlik qildi. Jo'jalarning yoshi dinamikasida bunday tendensiya saqlanib qolgan holda, 50 haftalik davriga kelib, shunga mutanosib ravishda, 50,55 g ni tashkil qilib, 43,6% ga yuqori bo'ldi.

3. Fiziologik ko'rsatkichlari bo'yicha, tana haroratida krosslar orasidagi katta farqlanishlar (0,2-0,3 gradus) kuzatilmadi. Ertalabki yurak urishi ko'rsatkichlarida "Lohmann brown-classic" krosslari tovuqlariga nisbatan "Lohmann sandy" tovuqlarida 7,2 marta va kechqurungida esa 9,8 marta ko'p bo'ldi. Nafas olishi chastotasi bo'yicha ikkala krossga mansub tovuqlarda ham ertalabki kamroq bo'lib, "Lohmann brown-classic" tovuqlarida minutiga $19,3 \pm 0,25$ marta, kechqurungi $21,9 \pm 0,41$ ni tashkil qilib, "Lohmann sandy" tovuqlarida esa ushbu ko'rsatkich $19,6 \pm 0,37$ va $25,8 \pm 0,47$ martani tashkil qildi.

4. Qonning morfologik tarkibi bo'yicha, "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda gemoglbin miqdori $80,9 \pm 0,85$ g/l ga teng bo'lgan bo'lsa, "Lohmann sandy" krosslarida esa bu ko'rsatkich $78,6 \pm 0,51$ g/l ni tashkil qilib, 2,3 g/l ga birinchi guruhdagilar ustunlik qildi. Bunday farqlanishlar eritorotsitlar va leykotsitlarda ham kuzatildi.

5. Krosslar tuxum berishning eng yuqori cho'qqisi orasidagi farqlanishlar "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlar "Lohmann sandy" krosslariga nisbatan 0,8% ga ustunlik qildi. 12 oydagi tuxum mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda "Lohmann brown-classic" krosslarida $314,2 \pm 5,52$

dona tuxum mahsuldorligini tashkil qilgan bo'lsa, 14 oydagi tuxum mahsuldorligi $349,3 \pm 5,65$ donaga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich shunga mos ravishda "Lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlarda $319,4 \pm 4,78$ va $353,1 \pm 6,28$ donani tashkil qildi.

6. Tuxum massasi tovuqlar yoshi dinamikasida oshib borishi kuzatilib, 22-haftalik davrida "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda $54,7 \pm 0,26$ g ni tashkil qilgan bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlarida ushbu ko'rsatkich $54,3 \pm 0,06$ g ga teng bo'ldi. 72-haftalik davriga kelib, "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda tuxum og'irligi 25,4% ga va "Lohmann sandy" tovuqlarida esa, 28,7% teng bo'lib, ikkikchi guruh tovuqlari 3,3% ga ustunlik qildi.

7. So'yishdan oldingi tirik vazni "Lohmann brown-classic" ($n=5$) krossiga mansub tovuqlarda $1900,6 \pm 26,95$ ($P < 0,01$) g ni tashkil qilib, "Lohmann sandy" ($n=5$) tovuqlarida esa, $1604,6 \pm 43,72$ g ga teng bo'lgan. "Lohmann brown-classic" krosslariga mansub tovuqlarda iste'molga yaroqli bo'limi 100 % deb qabul qilinsa, bir juft soni 26,8%, ko'krak va bel bo'limi 56,0% ($P < 0,05$), bo'yini 7,3% va bir juft qanot bo'limlari esa 9,9% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich shunga mutanosib ravishda "Lohmann sandy" tovuqlarida esa 23,1%; 58,9 %; 7,1% va 10,9 % ni tashkil qildi;

8. Go'shtning kimyoviy tarkibidagi suv miqdori "Lohmann brown-classic" krosslarga mansub tovuq go'shtida $73,40 \pm 0,67\%$ ni, "Lohmann sandy" tovuqlari go'shtida esa, $73,07 \pm 0,27\%$ ga teng bo'ldi. Birinchi guruh tovuq go'shtida oqsil miqdori $19,95 \pm 0,67\%$ ni tashkil qilib, ikkinchi guruh tovuq go'shtiga nisbatan, 0,55% ga ustun bo'ldi. Yog' miqdori bo'yicha, ikkala guruh tovuq go'shtida deyarli faqlanishlar kuzatilmadi. Har ikkala kross tovuq go'shtida fosfor miqdori ko'pligi bilan ($123,5$ mg/% va $118,7$ mg/%) ajralib turdi va farqlanishlar birinchi guruhdagilarda 4,8% ga ustunlik qildi;

9. Jo'jalar 1-2 kunlik davrida o'rtacha 35 °C haroratda, har 3-4 kundan 2-3 °C ga tushirib borish va 29-kunlik davridan boshlab, o'rtacha harorat 19 °C da saqlandi va ichimlik suvidagi kislorod miqdori 23,1% va karbonad angidrid gazi esa, 0,24% ni tashkil qilib, bunda "Lohmann brown-classic" tovuqlarida saqlanuvchanlik 97,4% ni, tuxum qo'yish davrida esa, 92,5% ga teng bo'lgan bo'lsa, "Lohmann sandy" tovuqlarida 94,1% ni tashkil qildi va "Lohmann brown-classic" tovuqlariga nisbatan 1,4% ga ustunlik qildi;

10. Ozuqa sarflanishi bo'yicha, 20 haftalik davrigacha "Lohmann brown-classic" ($n=50$) tovuqlarida $7,7 \pm 0,06$ kg ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich "Lohmann sandy" krosslarida $7,5 \pm 0,03$ teng bo'ldi. Birinchi guruh tovuqlarida mahsuldorlik davrida $117,4 \pm 1,4$ g, ikkinchi guruhdagilarda esa $113,3 \pm 1,28$ g ozuqa sarflandi. Ozuqa konversiyasi bo'yicha "Lohmann brown-classic" tovuqlarida 0,1 kg/kg tuxum vazniga ustunligi aniqlanildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

АЛИМБАЕВ БАУЫРЖАН КУРАЛБАЕВИЧ

**ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ПЕРСПЕКТИВНЫХ КУРИНЫХ КРОССОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ
ПРОДУКЦИИ ПТИЦЕВОДСТВА В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ
ХОЗЯЙСТВАХ**

06.02.03 – Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Qx939.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.uzkarakul.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Эрматов Юсупбек Амирович**
кандидат биологических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Арипов Уктам Хаджимуратович**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Холматов Анваржон Хакимжонович
кандидат сельскохозяйственных наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __ часов на заседании Научного совета PhD 05/30.12.2019 Qx.75.01 по присуждению ученой степени доктора философии при научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь (Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека 47. Научно-исследовательский институт каракулеводства и экологии пустынь, тел: (99866)233-32-79, факс (998660 2333481; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь (зарегистрировано под номером № 236). Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека, 47. Административное здание института, 1-этаж, тел: (99866) 2333279; факс: (99866) 2333481.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ «__» _____ 2023 года

Э.С.Шаптак
Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.с-х.н. (DSc), профессор

З.С.Кличев
Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёной степени,
д.ф.с-х.н. (PhD), старший научный сотрудник

Д.Холмирзаев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёной степени, д.с-х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом птицеводстве сегодня широко используются куриные кроссы, яичного направления. В настоящее время существуют более 20 крупных птицеводческих компаний, поставляющих яичные кроссы в страны мира, среди них «Декалб» и «Эурибрид» из Нидерландов, «ИСА-Бэбок» и «Шевера» из Канады, «Ломанн» из Германии, «Хай-Лайн» США, венгерская «Тетра», чешский «Доминант», французская «Иза», российский «Прогресс» и другие. По данным ФАО (2020 г.), в мире производится 1,7 триллиона яиц, из них 1,6 триллиона - куриные¹. Поэтому исследования по использованию куриных кроссов для повышения яичной продуктивности кур являются актуальным вопросом.

